

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEHANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SHIRINOV ZIYOMAT ZOYIROVICH

**BIR VA IKKI QUVURLI ISITISH TIZIMLARINI GIDRAVLIK VA
ISSIQLIK HISOBI USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on technical Sciences**

Shirinov Ziyomat Zoyirovich

Bir va ikki quvurli isitish tizimlarini gidravlik va issiqlik hisobi usullarini ishlab
chiqish.....3

Ширинов Зиёмат Зойирович

Разработка методов гидравлического и теплового расчета одно- и
двухтрубных сетей отопления.....21

Shirinov Ziyomat Zoyirovich

Development of methods for hydraulic and thermal calculation of one- and two-
pipe heating networks40

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEHANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SHIRINOV ZIYOMAT ZOYIROVICH

**BIR VA IKKI QUVURLI ISITISH TIZIMLARINI GIDRAVLIK VA
ISSIQLIK HISOBI USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T2587 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avjoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kangash veb-sahifasida (instmech.academy.uz) va "Ziyonet" ta'lim axborot portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xujayev Ismatulla Kushayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudaykulov Savet Ishankulovich
texnika fanlari doktori, professor

Zakirov Asqar Xalilovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dosent

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "11" "iyun" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40, 320-majlislar zali. Tel: (99855) 520-02-45; (9985) 520-04-46, e-mail: instmech@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (30 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy. Tel.: (99855) 520-02-45).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «30» may kuni tarqatildi.
(2025 yil «30» may dagi 8 raqamli reestr bayonnomasi)



M.M.Mirsaidov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t. f. d.,
professor, O'zR FA akademigi

F.F.Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
PhD, k.i.x.

Z.M.Malikov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda soʻnggi yillarda aholi turmush tarzini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Tabiiyki, uy-joy qurilishi, sanoat sohalarining kengayishi suv, gaz, elektr va issiqlik energiyasi isteʼmoliga boʻlgan talabni ortiradi. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun yangi muhandislik tarmoqlarini barpo etish, mavjud tizimlarni takomillashtirish va avtomatlashtirish orqali kapital xarajatlarni kamaytirish muhim vazifalardan biridir. Qulay mikroiklim yaratishda shamol, quyosh, yer usti va yer osti issiqlik energiyalaridan foydalanish koʻlamini kengaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda isitish tizimlarining samaradorligini oshirish, yopiq konturli tizimlarga oʻtish, alohida boshqaruv bloklarini joriy etish, energiya va material sarfini kamaytirish, issiqlik uzatishni jadallashtiruvchi materiallardan foydalanish hamda butun tizimni avtomatlashtirish orqali ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirish belgilangan. Bu borada, jumladan ushbu jarayonlar uchun aniq gidravlik va issiqlik hisoblari usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Jahonda isitish tizimlarini loyihalash va boshqarish ishlari amaldagi meʼyoriy hujjatlarga muvofiq, integratsiyalashgan yondashuvga asoslanib, umumiy balans tenglamalari yordamida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yoʻnalishda, jumladan, gidrodinamika qonunlari, xususan, Kirxgof qonunlarining analoglari hamda massa, impuls va issiqlik miqdorlarining kvazi bir oʻlchovli saqlanish tenglamalaridan foydalaniladi. Halqali struktura va boshqaruv elementlariga ega tarmoqlardan foydalanish, issiqlik uzatish jarayonlarini tezlashtirish hamda uskunalarning foydali ish koeffitsientini oshirish boʻyicha keng qamrovli tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, isitish tizimlarini loyihalash, monitoring qilish va optimallashtirishga oid ilmiy izlanishlarda murakkab topologiyali tizimda issiqlik uzatgich harakati, uning tizim elementlari va atrof-muhit bilan issiqlik almashinuvi jarayonlarini aks ettiruvchi aniq matematik modellar yaratish, shuningdek, mos masalalarni hal etish uchun samarali algoritmlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanmoqda.

Respublikamizda ishlab chiqarish, turar-joy binolarini isitish va energiya manbalaridan keng foydalanish hamda ularning samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazish va ularni amalda qoʻllash boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz taʼminlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish»¹ boʻyicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, isitish va sovutish tizimlarida qayta

¹Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni.

tiklanadigan issiqlik manbalaridan foydalanish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borish shu bilan birga isitish tizimlari foydali ish koeffitsientlarini oshirish muhim hisoblanadi. Shu sababli kvazi bir o'lchovli modellar asosida bir va ikki quvurli isitish tizimlarini hisoblashning usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi «Innovation loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-916-sonli va 2018 yil 27 apreldagi «Innovation g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3682-sonli Qarorlarida, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlanishining IV.«Matematika, mexanika, informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Issiqlik va massa almashinuvi nazariyasi texnik fizikaning muhim bo'limi va isitishning ilmiy asosidir. U gidromexanika, termodinamika va issiqlik uzatish nazariyasi kabi fanlarga asoslangan. Issiqlik uzatishning uch turi – issiqlik o'tkazuvchanlik, konveksiya va issiqlik nurlanishi texnika va texnologiyaning yangi paydo bo'lgan talablari uchun alohida va o'zaro bog'liqlikda muvaffaqiyatli o'rganilgan.

Suyuqlik, gaz va plazmaning impuls, massa va ichki energiya ko'chishi qonunlari ichki va tashqi omillar ta'sirida moddalarning konvektiv va diffuzion, stasionar va nostasionar uzatilishini hisobga olgan holda to'liq Nave-Stoks tenglamalari doirasida o'rganiladi. Impuls, issiqlik va moddalarning diffuzion uzatilishi Nyuton, Fure va Fik qonunlari (gipotezalari) shaklida umumiy gradient asosiga ega. Qattiq jismlar konvektiv uzatishning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi, bu yerda issiqlik uzatish an'anaviy Fure issiqlik uzatish gipotezasi doirasida, shuningdek umumlashtirilgan Fure formulasi bilan tavsiflangan va giperbolik tipdagi tenglamalarga olib keladigan issiqlik uzatishning bir fazali va ikki fazali kechikishi doirasida o'rganilgan.

Suv bilan isitish tizimlari faoliyatini tavsiflashda kvazi bir o'lchovli gidrodinamika qonunlari qo'llanilgan ishlar kam. Ayni holda massa, impuls va issiqlikning bir o'lchovli ko'chishi tenglamalariga o'tish Nave-Stoksning ko'p o'lchovli to'liq tenglamalarini chetlab o'tib, issiqlik va massa almashinuvi muammolari sinfini kengaytirishga yordam beradi. Agar kvazi bir o'lchovli gidrodinamika (N.E. Jukovskiy) tenglamalari va boshqariladigan va boshqarilmaydigan isitish tizimlarini hisoblash va loyihalash jarayonida murakkab, halqali quvur tizimlarida oqim taqsimoti qonunlaridan foydalanilsa, yangi imkoniyatlar ochiladi. Buning uchun dastavval bir va ko'p quvurli muhandislik

kommunikasiya tarmoqlari hisoblangan ko'p konturli quvurlar tarmoqlarini gidravlik va issiqlik hisobi usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zR FA M.T. O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining «Suyuqlik, gaz va gidroyuritmalar tizimlari mexanikasi» laboratoriyasining 2020-2024 yillardagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – substantsiyalar ko'chishining kvazi bir o'lchovli tenglamalari doirasida ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichli bir va ikki quvurli suv bilan isitish tarmoqlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

suv bilan isitish tizimlarining tashkil etuvchilari, konstruktsiyalari, hisoblashning ilmiy asoslari va mavjud usullarni o'rganish;

bir quvurli isitish tizimi va unga ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichlarning modellari va hisoblash usullarini qarshilikning kvadratik rejimi doirasida ishlab chiqish;

oqimning ixtiyoriy gidrodinamik rejimi uchun ikki quvurli suv bilan isitish tarmog'i va unga ulangan issiqlik almashtirgichning modellari va hisoblash usullarini ishlab chiqish;

bir va ikki quvurli suv bilan isitish tizimlarida asosiy parametrlarni aniqlash va ularning issiqlik va massa almashinuvi jarayonlariga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot ob'ekti – bir va ikki quvurli suv bilan isitish tizimlari va ularga ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichlarda issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari.

Tadqiqot predmetini bir va ikki quvurli suv bilan isitish tarmoqlarini matematik modellashtirish, gidravlik va issiqlik hisoblash usullari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida bir o'lchovli tutash muhitlar mexanikasi, oqim taqsimoti nazariyasining qoidalari, matematik induksiya va issiqlik uzatish nazariyasi usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining kvazi bir o'lchovli tavsifi va doirasida bir quvurli isitish tarmog'iga ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgich konturi bo'ylab issiqlikni tashish gipotezasi va kvadratik oqim rejimiga muvofiq issiqlik almashtirgichning matematik modeli va gidravlik hisoblashning taqribiy usuli ishlab chiqilgan;

Shuxov formulasi va tashqi kontur bo'ylab suyuqlik oqimi gipotezasi asosida ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichning issiqlik almashinuvi jarayonini hisoblashning samarali usuli ishlab chiqilgan;

kvazi bir o'lchovli yondashuv, Kirxgof qonunlarining analoglari va matematik induksiya qoidalari asosida, ixtiyoriy gidrodinamik rejimdagi ikki quvurli isitish tarmog'iga ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgich uchun gidravlik va issiqlik hisoblash usullari ishlab chiqilgan;

ikki quvurli suv bilan isitish tarmog'ini gidravlik va issiqlik hisoblash usullari oqimning beshala gidrodinamik rejimi va chekli sondagi issiqlik almashtirgich ulangan hollar uchun matematik modeli ishlab chiqilib, olingan natijalar baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bir va ikki quvurli suv bilan isitish tarmoqlariga ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichlarning gidravlik va issiqlik hisobi uchun formulalar olindi va dasturiy mahsulot ishlab yaratilgan;

halqalangan bir va ikki quvurli suv bilan isitish tarmoqlarining gidravlik va issiqlik hisobi uchun hisoblash algoritmi va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi substansiyalarning ko'chishi va saqlanish qonunlaridan, oqim taqsimoti qonunlaridan to'g'ri foydalanish va olingan natijalarning o'rganilayotgan hodisalar fizikasiga muvofiqligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati birinchi marta suv bilan isitish tizimlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining tizimli tavsifi substansiyalarning uzatilishi va saqlanishining kvazi bir o'lchovli tenglamalari asosida tuzilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlari analoglari va Shuxov formulasining bir xil va turli xil elementlarga ega bo'lgan ko'p konturli quvurlar tarmog'ini hisoblash jarayonida qo'llash imkoniyatlari ko'rsatib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bir va ikki quvurli suv bilan isitish tizimlarini hisoblash uchun mo'ljallangan matematik modellar, algoritmlar va dasturiy mahsulotlar asosida:

halqalangan isitish jarayonini optimallashtirish va issiqlikning tekis tarqalishini ta'minlash masalalari uchun olingan yuqori darajadagi aniqlikdagi yechimlar YOFA-FTex-2018-13 loyihasini bajarish jarayonida qo'llanilgan (O'zR FA V.I. Romanovskiy nomidagi matematika institutining 2024 yil 24 oktyabrdagi 2/367 sonli ma'lumotnomasi). Bu ilmiy natijalardan foydalanish gidrodinamikaning murakkab fizik jarayonlarini ifodalashda va ushbu tenglamalarni yechish uchun yangi optimal algoritmlar qurish imkonini bergan;

isitish tizimlarini gidravlik va issiqlik hisobining samarali qiymatlarini aniqlash usullari Buxoro viloyati Kogon tuman 5-sonli va 9-sonli maktablarning isitish tizimlarini qayta jihozlash jarayonlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024 yil 29 oktyabrdagi 24-06/11383-son ma'lumotnomasi). Natijada mavjud muhandislik hisoblariga ketadigan vaqt va mehnatni 15-20% ga kamaytirish va hisoblash aniqligini 10-12% ga oshirishga erishilgan;

bir quvurli isitish tarmog'ini hisoblash uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlar „Kogon isitgich moslamalar“ MChJda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qurilish va kommunal xo'jalik vazirligining 2024 yil 29 oktabrdagi 24-06/11383-sonli ma'lumotnomasi). Natijada uchastkalar bo'yicha quvurlarning diametrlari

aniqlangan, hisoblash vaqti 20-25% ga qisqartirilgan, gidravlik hisoblashning aniqligi 12-15% ga oshirilgan va isitish jarayonini optimallashtirish va issiqlikning tekis taqsimlanishini ta'minlash hisobiga issiqlik energiyasi sarfini 2-3% ga tejashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 1 ta xalqaro va 5 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, ulardan 3 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida chop etilgan hamda 4 ta EHM uchun dasturiy mahsulotga Intellektual mulk agentligining guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi, dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi, chop etilgan ishlar va Dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining besh bandedan iborat birinchi «**Isitish tizimlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarini o'rganilganligi masalasining holati haqida**» bobida suv isitish tizimining tuzilishi va loyihalashning xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Bir, ikki va ko'p quvurli isitish tizimlarini va ularning tarkibiy qismlarini, shuningdek ularni avtomatik boshqarish tizimlarining variantlari muhokama qilingan. Issiqlik va massa almashinuvi jarayonlarining nazariy asoslari va modellashtirish bo'yicha ishlar ko'rib chiqilgan. Issiqlik uzatish tenglamalari konvektiv issiqlik uzatishni hisobga olgan va olmagan holda berilgan. Isitish tizimlarida issiqlik va massa almashinuvi jarayonlari bo'yicha alohida nashrlar tahlil etilgan.

Ushbu bobda suyuq ishchi agentini quvur orqali uzatish jarayonida issiqlik va massa almashinuvi tenglamalari keltirib chiqarilgan.

Massaning saqlanish qonuni kvazi bir o'lchovli tenglama bilan tavsiflanadi:

$$\frac{\partial \rho}{\partial t} + \frac{\partial \rho w}{\partial x} = 0. \quad (1)$$

Impuls saqlanish qonunining kvazi bir o'lchovli ko'rinishi darsi-Veysbax formulasi yordamida tuzilgan:

$$-\frac{\partial p}{\partial x} = \frac{\partial(\rho w)}{\partial t} + \frac{\partial(\rho w^2)}{\partial x} + \rho g \frac{dy}{dx} + \frac{\lambda}{2D} \rho |w| w. \quad (2)$$

Issiqlik tashuvchi ichki energiyasi $\xi = c_B T$ saqlanishi va ko'chishi qonuni quyidagi tenglama bilan tavsiflangan:

$$\frac{\partial(\rho \varepsilon)}{\partial t} + w \frac{\partial(\rho \varepsilon)}{\partial x} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\lambda_T \frac{\partial T}{\partial x} \right) + E_{BU} + E_t - k(T - T_{oc}) \bar{f}_{op} / f, \quad (3)$$

bu yerda harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti λ_T li issiqlik o'tkazuvchanlikdan tashqari issiqlikning oqib kelishi va manbalarining intensivligi E_{BU} , oqim kinetik energiyasining dissipasiyasi E_t , harorati T_{oc} bo'lgan atrof muhitdagi ishchi suyuqligining o'rtacha issiqlik berish koeffitsienti k , quvur ko'ndalang kesimining yuzasi $f = \pi D^2 / 4$ va 1 metr ga mos keluvchi quvur tashqi sirtining solishtirma yuzasi \bar{f}_{op} hisobga olindi.

Yoyda (quvur elementida) gi bosim tushishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanilgan:

$$p_K = p_H - \frac{\lambda Q^2 \rho}{2Df^2} l - \rho g (y_K - y_H), \quad (4)$$

bu yerda «H» va «K» indeksleri kirish va chiqish kesimlari (tugunlar) ning ko'rsatkichlarini ajratadi; y – quvur o'qining nivelir balandligi; ρ – o'zgaras qiymatga ega suyuqlik zichligi; Q – suyuqlikning hajmiy sarfi; l – qaralayotgan quvur qismining uzunligi.

Gidravlik hisoblashlar uchun qarshilik koeffitsientining bir hadli ko'rinishidan foydalanilgan:

$$\lambda = \zeta (k_s / D)^\theta Re^n, \quad (5)$$

bu yerda laminar oqim rejimida Stoks formulasi ($\zeta = 64, \theta = 0, n = -1$) qo'llaniladi; o'tish rejimida – Zaychenko formulasi ($\zeta = 0.0025, \theta = 0, n = 1/3$); silliq turbulent oqim rejimida $k_s < 10D / Re$ uchun – Blazius formulasi ($\zeta = 0.3164, \theta = 0, n = -1/4$); aralash rejimda $10 < Re k_s / D < 158$ uchun – Leybenzon formulasi ($\zeta = 10^{-0.627}, \theta = 0.127, n = -0.123$); rivojlangan turbulent oqim rejimida $Re k_s / D > 158$ uchun – Shifrinson formulasi ($\zeta = 0.11, \theta = 0.25, n = 0$) qo'llaniladi. Quvur jonli kesimining ekvivalent g'adirbudurligi k_s bilan belgilangan.

Muallif issiqlik tashuvchi haroratining yo'l-yo'lakay o'zgarishni ifodalash uchun suyuqlik kinetik energiyasi dissipasiyasi $\frac{\lambda Q^3 \rho}{2k_{cp} D f^2 \bar{f}_{op}}$ qo'shimcha hisobga

olingan Shuxov formulasini umumlashtirishga muvaffaq bo'lgan: $Sh = \frac{k_{cp} \bar{f}_{op}}{\rho Q c_B}$ deb

qabul qilinsa

$$T(l) = T_{oc} + \frac{\lambda Q^3 \rho}{2k_{cp} D f^2 \bar{f}_{op}} + \left(T_H - T_{oc} - \frac{\lambda Q^3 \rho}{2k_{cp} D f^2 \bar{f}_{op}} \right) \exp(-Sh l). \quad (6)$$

$\frac{\lambda Q^3 \rho}{2k_{cp} D f^2 \bar{f}_{op}}$ qo'shiluvchilarsiz bu formula birinchi marta Shuxov tomonidan olingan.

Ushbu bobda, shuningdek, Kirxgofning birinchi va ikkinchi qonunlari quvurlar tarmog'iga nisbatan qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.


Suv bilan isitish tarmoqlarini bo'yicha ob'ektlari tadqiqotlari va shu kundagi vaziyatning muammolarini bo'yicha tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Bir quvurli isitish tizimi va unga ulangan issiqlik almashtirgichning gidravlik va issiqlik hisobining kvazi bir o'lchovli usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida pastki oxirlari orqali bir quvurli tarmoqqa ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichning matematik modeli shakllantirilgan va uni gidravlik hisoblash usuli ishlab chiqilgan.

Zamonaviy issiqlik almashtirgichlari yuqori issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan materialdan alohida seksiya shaklida ishlab chiqariladi. Har bir seksiyada balandligi h va ichki diametri D_v , uzunligi l_c va ichki diametri D_g bo'lgan yuqorigi va pastki gorizontaal quvurchalar orqali bog'langan vertikal quvurlar bor. Ishchi agentdan atrof-muhitga issiqlik oqimini oshirish uchun atrof-muhit bilan kontakt yuzasini oshiradigan seksiyalar tashqi qovurg'alar bilan jihozlangan. Shunga ko'ra, issiqlik almashtirgichning uzunligi $l = N l_c$ seksiyalar uzunliklaridan bir necha marotaba uzunroq, bu yerda N – issiqlik almashtirgichdagi seksiyalar soni.

Magistral kanal bilan issiqlik almashtirgich orasidagi AB va CD ulovchi (permichka)larning uzunligini h_p bilan belgilaymiz. Faraz qilaylik, sarf

$Q = \frac{\pi D_m^2}{4} w$ magistral kanal (q_D) bilan issiqlik almashtirgichning yuqori (Q_B) va pastki (q_C) gorizontaal quvurchalari orasida taqsimlanadi. Biz o'rta vertikal quvurlardagi oqimlarni e'tiborsiz qoldiramiz. U holda bizda ikki konturli yopiq tarmoq hosil bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Matematik modellashtirishda qo'llanilgan, bir quvurli tarmoqqa ulangan issiqlik almashtirgichning sxematik tasviri

Pastki kontur to'rtta yoyga ega: uzunliklari h_p bo'lgan AB va CD ulagichlar (перемички), taqriban bir xil uzunlikka l ega BC issiqlik almashtirgichning pastki gorizontaal quvurchasi va AD magistral kanalning bir qismi. Suyuqlikning kirish va chiqishdagi sarfi bir xil va Q ga teng. A dan B gacha yoy sarfini Q_A bilan, yuqori yoy bo'ylab sarfini Q_B bilan belgilaymiz va ular biz uchun noma'lum hisoblanadi. Agar biz ularning qiymatlarini topsak, u holda AD yoy bo'yicha sarfni $q_D = Q - Q_A$ kabi, BC yoy bo'yicha sarfni $q_C = Q_B - Q_A$ kabi, CD yoy bo'yicha sarfni $q_K = Q_A$ kabi hisoblaymiz. Ushbu muloxazalar Kirxgofning birinchi qonunining analogidan – tarmoqlangan va tutashgan tugunlardagi suv massasining muvozanatidan kelib chiqadi.

Yoylarda bosim tushishi tenglamalari tuzilgan: AB yoyda –

$$p_H - p_B = \frac{\lambda_p \rho h_p}{2D_p f_p} Q_A^2 = K_A Q_A^2, \quad (7)$$

AD yoyda –

$$p_H - p_K = \frac{\lambda_m \rho l}{2D_m f_m^2} q_D^2 = K_D q_D^2, \quad (8)$$

BC yoyda –

$$p_B - p_C = \frac{\lambda_g \rho l}{2D_g f_g^2} q_C^2 = K_C q_C^2, \quad (9)$$

BC yuqori yoyda –

$$p_B - p_C = \left(2 \frac{\lambda_v \rho h}{2D_v f_v^2} + \frac{\lambda_g \rho l}{2D_g f_g^2} \right) Q_B^2 = K_B Q_B^2, \quad (10)$$

CD yoyda –

$$p_C - p_K = \frac{\lambda_p \rho h_p}{2D_p f_p^2} q_K^2 = K_K q_K^2. \quad (11)$$

Kvadrat qarshilik rejimi uchun (7)-(11) tenglamalar tizimidan yoy sarflari aniqlangan:

$$Q_A = \frac{\sqrt{K_D}}{\sqrt{K_A + K_K + \frac{K_C K_B}{(\sqrt{K_B} + \sqrt{K_C})^2} + \sqrt{K_D}}} Q = KQ \equiv q_K,$$

$$Q_B = \frac{\sqrt{K_C}}{\sqrt{K_B} + \sqrt{K_C}} KQ, \quad q_C = Q_A - Q_B = \frac{\sqrt{K_B}}{\sqrt{K_B} + \sqrt{K_C}} KQ,$$

$$q_D = Q - Q_A = (1 - K)Q, \quad (12)$$

Shuningdek barcha tugunlarda bosimlarni hisoblash uchun formulalar olingan, shu jumladan issiqlik almashtirgichli qismning chiqish kesimidagi bosim uchun ham:

$$p_K = p_H - K_D (1 - K)^2 Q^2. \quad (13)$$

§2.2 da bir quvurli issiqlik tarmog'iga ulangan issiqlik almashtirgichning issiqlik hisobi usuli ishlab chiqilgan.

Silindrsimon quvurda tinch holatda bo'lgan suyuqlikning issiqlik yo'qotishini aniqlash uchinchi turdagi chegara shartlarida kanalning devor qalinligi orqali suyuqlik va atrof-muhit o'rtasidagi issiqlik almashinuvi masalasi shakllantirilgan va yechilgan:

$$-\frac{dT(r_1)}{dr} = k_B [T_{\mathcal{K}} - T(r_1)], \quad \frac{dT(r_2)}{dr} = k_H [T_{oc} - T(r_2)]. \quad (14)$$

Bu yerda $k_B = \alpha_B / \lambda_T$ va $k_H = \alpha_H / \lambda_T$; α_B, α_H – suyuqlikdan devorga va devordan atrof-muhitga issiqlik berish koeffitsientlari; λ_T – devor materialining temperaturani o'tkazish koeffitsienti.

$\frac{1}{r} \frac{d}{dr} \left(r \frac{dT}{dr} \right) = 0$ tenglamaning yechimi $T(r)$ funksiya ko'rinishida olingan.

Berilgan $T_{\mathcal{K}}$ va T_{oc} qiymatlar uchun ushbu yechimga muvofik $T(r_2), T(r_1)$ grafiklar qurilgan va atrof-muhitga beriladigan issiqlikning solishtirma kattaligi aniqlangan (2-rasm):

$$q_{y\delta} = -\lambda_T \frac{dT(r_2)}{dr} = \alpha_H [T(r_2) - T_{oc}] = A_0 T_{oc} + B_0 T_{\mathcal{K}}, \quad (15)$$


bu yerda $B_0 = \alpha_H \left(1 + r_2 k_H \ln \frac{r_2}{r_1} + \frac{r_2 k_H}{r_1 k_B} \right)^{-1}$, $A_0 = -B_0$ belgilashlardan foydalanilgan.

Shuxov formulasidan, o'zaro aralashib ketuvchi oqimlarning o'rtacha harorati formulasi va (15) formuladan foydalanib, olingan yoylardagi sarflarga


olinganga muvofiq issiqlik almashtirgichning uzellardagi haroratlarini hisoblash algoritmi va dasturi (DGU № 40515) ishlab chiqilgan.

Hisoblash tajribasi va adabiyot manbalarini tahlil qilish tabiiy konveksiya sharoitida tajriba ma'lumotlariga yaqinroq natijalarni beradigan bazaviy ma'lumotlarni (variant 0) tuzish imkonini berdi: $l=0.07 \text{ m}$, $h=0.6 \text{ m}$, $\dot{h}_p=0.15 \text{ m}$, $h_p=0.15 \text{ m}$, $D_m=0.03 \text{ m}$, $D_v=0.01 \text{ m}$, $D_g=0.03 \text{ m}$, $\dot{D}_p=0.03 \text{ m}$, $D_p=0.03 \text{ m}$, $\dot{D}_p=0.03 \text{ m}$, $\delta_m=0.005 \text{ m}$, $\delta_v=0.12 \text{ m}$, $\delta_g=0.03 \text{ m}$, $\dot{\delta}_g=0.20 \text{ m}$, $\dot{\delta}_p=0.05 \text{ m}$, $\delta_p=0.05 \text{ m}$, $p_H=110000.0 \text{ Pa}$, $\rho=1000.0 \text{ kg m}^{-3}$, $\lambda_m=0.002$, $\lambda_v=0.002$, $\lambda_g=0.002$, $\dot{\lambda}_p=0.002$, $\lambda_p=0.002$, $c_B=4190.0 \text{ Дж кг}^{-1} \text{ K}^{-1}$, $g=9.8 \text{ m s}^{-2}$, $k_{cp}=7.5 \text{ Bm m}^{-2} \text{ c}^{-1}$, $\lambda_T=200 \text{ Bm m}^{-1} \text{ K}^{-1}$, $\alpha_B=3500.0 \text{ Bm m}^{-2} \text{ K}^{-1}$, $\alpha_H=17.0 \text{ Bm m}^{-2} \text{ K}^{-1}$, $T_{oc}=293.15 \text{ K}$, $T_H=343.15 \text{ K}$, $Q=1,4137 \text{ л / c}$.

§2.3 da issiqlik almashtirgichdagi seksiyalar soniga qarab, bazaviy variant uchun hisoblash natijalari keltirilgan. Boshqa ma'lumotlar o'zgarimas bo'lib qolganda, qo'shimcha hisoblashlar alohida ko'rsatkichlarning qiymatini o'zgartirish bilan amalga oshirilgan. Bunday ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar qabul qilingan: umumiy sarf uchun – $Q=1,4137 \text{ л / c}$ (1-variant), issiqlik tashuvchining dastlabki harorati uchun – $T_n=323,15 \text{ K}$ (2-variant), atrof-muhit harorati uchun – $T_{oc}=283,15 \text{ K}$ (3-variant) va $T_{oc}=303,15 \text{ K}$ (4-variant), qarshilik koeffitsienti uchun – $\lambda=0,005$ (5-variant), oqimi bo'lgan uchastkalardagi issiqlik berish koeffitsienti uchun – $k_{cp}=17,5 \text{ Bm / m}^2 / \text{c}$ (6-variant), vertikal oraliq quvurchalardagi uch qatlamli issiqlik almashinuvi varianti uchun ma'lumotlar to'plami $\alpha_B=2500,0 \text{ Bm / m / K}$ $\alpha_H=7,0 \text{ Bm / m / K}$ (7-variant), shuningdek yuqori gorizontal quvurlarning qalinligi uchun – $\delta_{gv}=0,10 \text{ m}$ (8-variant).




2-rasm. Dastlabki alohida ma'lumotlar o'zgartirilganda seksiyalar soniga bog'liq holda issiqlik tashuvchining chiqishdagi haroratining o'zgarishi



3-rasm. Issiqlik almashtirgichli qismlardan seksiyalar soniga bog'liq holda berilgan issiqlik kattaligi Q (Bm)

Issiqlik almashtirgich seksiyalari soniga va alohida ko'rsatkichlarning o'zgarishiga qarab olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili o'tkazilgan, bu ko'rib chiqilayotgan ob'ekt natijalarining sifatli kelishuvini ko'rsatadi. 2- va 3-rasmlarda issiqlik almashtirgichli qismdan issiqlik tashuvchining chiqish harorati va issiqlik berilishi intensivligi Q (Bt) o'zgarishi chiziqlari seksiyalar soniga bog'liq holda keltirilgan.



4-rasm. Beshta issiqlik almashtirgichli bir quvurli issiqlik tarmog'ining sxematik ko'rinishi

§2.4 da bir quvurli issiqlik tarmog'ining gidravlik va issiqlik hisobi uchun algoritm va dastur (DGU № 41131) ishlab chiqilgan va undan foydalanilgan holda hisoblash tajribasi o'tkazilgan. Oddiy variantda bir quvurli isitish tarmog'i qozon (KП), kengaytirish baki (P6) va qozonning yuqori qismidan ta'minlanadigan va pastki qismga ulanishi bilan tugaydigan issiqlik almashtirgichli yopiq magistraldan iborat (4-rasm). Har bir issiqlik almashtirgich cheklangan miqdordagi bir xil seksiyalarga ega va o'z haroratiga ega bo'lgan muhit(xona)da o'rnatilgan.


Hisoblashning to'qqizta varianti uchun yakuniy hisoblash ma'lumotlari

Ko'rsatkichlar	Hisoblash variantlari								
	0	1	2	3	4	5	6	7	8
Tarmoqdan chiqishdagi bosim $P_{\text{кон}}, Па$	109722.40	109930.60	109722.40	109722.40	109722.40	109306.00	109722.40	109722.40	109722.40
Issiqlik tashuvchining tarmoqdan chiqishdagi harorati $T_{\text{кон}}^0, C$	64.440	59.967	55.499	63.648	65.765	64.440	62.570	66.500	64.569
Tarmoqda issiqlikning yo'qotilish miqdori $Q_{\text{ном}}, Bm$	22870.89	20635.79	18515.91	26129.84	17419.89	22870.89	30561.75	14397.52	22342.23

Bobning oxirgi paragrafida asosiy ma'lumotlar va tarmoqning alohida ko'rsatkichini sakkizta varianti uchun o'zgartirish bo'yicha o'tkazilgan hisoblash tajribasi natijalari muhokama qilingan, hamda tarmoqqa ulangan beshta issiqlik almashtirgichli isitish tarmog'i uchun olingan hisoblash natijalar muhokama qilingan. Tarmoq uchun ham, alohida issiqlik almashtirgichlar uchun ham ishchi suyuqlikning yoylardagi sarf va tugunlardagi haroratlar aniqlangan. To'qqizta hisoblash varianti bo'yicha yakuniy ma'lumotlarni keltirish bilan cheklanamiz (jadvalga qarang).

Agar ikkinchi bobda bir quvurli suv bilan isitish tarmog'ini modellashtirishda issiqlik almashtirgichning oraliq vertikal quvurlarida harakatlanmaydigan issiqlik tashuvchi haqidagi gipoteza va kvadratik oqim rejimi ishlatilgan bo'lsa, uchinchi bobda kvazi bir o'lchovli yondashuv doirasida ikki quvurli suv bilan isitish tarmog'i va uning issiqlik almashtirgichining gidravlik va issiqlik hisobi uchun aniq yechimlar olingan. Ushbu bob «**Zamonaviy issiqlik almashtirgichlari bo'lgan ikki quvurli isitish tarmog'ini hisoblashning matematik modellari va algoritmlari**» deb nomlangan.

§3.1 da bir tomondan ikki quvurli suv isitish tarmog'iga ulangan zamonaviy ko'p seksiyali issiqlik almashtirgichning gidravlik va issiqlik hisobi masalasi shakllantirilgan (5-rasm). Ishchi agentning o'zgarmas hajmiy oqim sarfida issiqlik almashtirgichning bosimi va haroratining berilgan kirish qiymatlari uchun issiqlik almashtirgichning chiqishdagi mos ko'rsatkichlarini topish talab etiladi.



5-rasm. Bir tomondan ikki quvurli tarmoqqa ulangan issiqlik almashtirgichning sxematik ko'rinishi

$M + 1$ seksiyali issiqlik almashtirgichning tepadagi tugunlarini $1, 2, \dots, m, \dots, M, M + 1$ va pastki tugunlarini $1', 2', \dots, m', \dots, M', (M + 1)'$ kabi tartibga solamiz. Vertikal quvurchalardagi sarflarni $Q_1, Q_2, \dots, Q_m, \dots, Q_M$ orqali belgilaymiz. Agar ularning qiymatlari ma'lum bo'lsa, u holda o'ngdagi ohirgi quvurcha bo'yicha suyuqlik sarfi $Q_{M+1} = Q - \sum_{i=1}^M Q_i$ ni tashkil qiladi. Yuqorigi quvurcha bo'yicha yoylarda sarf $q_1 = Q - Q_1, q_2 = Q - Q_1 - Q_2, \dots, q_m = Q - Q_1 - Q_2 - \dots - Q_m, \dots, q_{M-1} = Q - Q_1 - \dots - Q_m - \dots - Q_{M-2} - Q_{M-1}$ va $q_M = Q - Q_1 - Q_2 - \dots - Q_m - \dots - Q_{M-1}$ ni tashkil qiladi. Pastki quvurcha bo'yicha yoylar sarfini $q'_M = Q_M, q'_{M-1} = Q_M + Q_{M-1}, q'_m = Q_M + Q_{M-1} + \dots + Q_m, \dots, q'_2 = Q_M + Q_{M-1} + \dots + Q_m + \dots + Q_3$ va $q'_1 = Q_M + Q_{M-1} + \dots + Q_m + \dots + Q_3 + Q_2$ ni tashkil qilishadi.

Ko'rib turganingizdek, vertikal quvurchalar orqali umumiy suv sarfi Q ga teng. Bu bilan biz Kirxgofning birinchi qonuni analogining bajarilishini ta'minladik.

Tugunlardagi bosimlarni $p_1, p_2, \dots, p_m, \dots, p_M, p_{M+1}, p_1', p_2', \dots, p_{m'}, \dots, p_{M'}, p_{(M+1)'}$ bilan belgilaymiz. Ushbu miqdorlarni aniqlash uchun biz Kirxgofning ikkinchi qonunining analogidan foydalanamiz.

M alohida konturli issiqlik almashtirgich yoylarida oqim sarflari va tugunlaridagi bosimlarini hisoblash uchun formulalar matematik induksiya usulidan foydalanib olingan.

$$r_1 = \frac{\sqrt[\alpha]{2K_g + K_v}}{\sqrt[\alpha]{K_v} + \sqrt[\alpha]{2K_g + K_v}}, r_2 = \frac{\sqrt[\alpha]{2K_g + r_1^\alpha K_v}}{\sqrt[\alpha]{K_v} + \sqrt[\alpha]{2K_g + r_1^\alpha K_v}}, \dots, r_M = \frac{\sqrt[\alpha]{2K_g + r_{M-1}^\alpha K_v}}{\sqrt[\alpha]{K_v} + \sqrt[\alpha]{2K_g + r_{M-1}^\alpha K_v}}$$

Vertikal quvurchalardagi suyuqlik sarfini hisoblashda foydalaniladigan rekurrent koeffitsientlar ketma-ketligi tuzilgan: $Q_1 = r_M Q$, $Q_2 = r_{M-1}(1-r_M)Q$, $Q_3 = r_{M-2}(1-r_{M-1})(1-r_M)Q$, ... , $Q_m = r_{M-m+1}(1-r_{M-m+2})\dots(1-r_M)Q, \dots$, $Q_M = r_1(1-r_2)(1-r_3)\dots(1-r_M)Q$, $Q_{M+1} = (1-r_1)(1-r_2)(1-r_3)\dots(1-r_M)Q$. Ushbu ma'lumotlar tepadagi gorizontalar bo'ylab oqim sarflarini aniqlash imkonini beradi:


$$q_1 = (1-r_M)Q, \quad q_2 = (1-r_{M-1})(1-r_M)Q, \dots, \\ q_m = (1-r_{M-m+1})(1-r_{M-m+2})\dots(1-r_M)Q, \dots, \quad q_M = (1-r_1)(1-r_2)\dots(1-r_M)Q,$$

shuningdek, pastki gorizontalar bo'ylab ham oqim sarflari aniqlandi.

Ushbu ma'lumotlardan, shuningdek, gidravlik va issiqlik hisobi uchun yuqorida keltirilgan formulalar yordamida issiqlik almashtirgichning tugunlaridagi bosimlar va haroratlar aniqlangan. Issiqlik almashtirgichning issiqlik hisobi seksiyalarning soni turlicha bo'lganida issiqlik almashtirgich oqimining yo'nalishiga va yoy sarflari muvofiq amalga oshirilgan.

Misol tariqasida suyuqlikning dastlabki hajmiy oqim sarfini besh, o'n va o'n besh seksiyali tepa va vertikal yoylarda taqsimlashini keltiramiz (5-rasm). Bu yerda va keyingi grafiklarda 1, 2, 5, 6 raqamlari issiqlik almashtirgichdagi umumiy oqim tezligiga $w = 0.3 \text{ m c}^{-1}$, 3, 4, 7, 8 raqamlar – 0.4 m c^{-1} ga; 1, 3, 5, 7 raqamlar – atrof muhit harorati $T_{oc} = 293.15 \text{ K}$, 2, 4, 6, 8 raqamlar – 293.15 K ; 1-4 raqamlar issiqlik uzatish koeffitsienti $k_{cp} = 7.5 \text{ Bm m}^{-2} \text{ c}^{-1}$ ga; 5-8 raqamlar esa – $17.5 \text{ Bm m}^{-2} \text{ c}^{-1}$ ga mos keladi.


1-8 variantlar uchun issiqlik almashtirgichdagi seksiyalar soniga bog'liq tarzda issiqlik agentining chiqishdagi haroratining o'zgarishi tahlil etilgan. Tahlil quyidagilarni ko'rsatdi:



6-rasm. Hajmiy sarfning besh, o‘n va o‘n besh seksiyali issiqlik almashtirgichlarning tepa (1, 3, 5) yoylarda va vertikal patrubkalaridagi (2, 4, 6) taqsimoti


oshishi bilan issiqlik tashuvchining atrofga issiqlik berishi kamayadi.

Ushbu mulohazalar yuqorida sanab o‘tilgan dastlabki ma‘lumotlarning sakkiz varianti uchun n seksiyali issiqlik almashtirgich orqali umumiy issiqlik yo‘qotilishi bo‘yicha hisoblash tajribasi (DGU № 36969) natijalari keltirilgan 7-rasmdagi grafiklar bilan ham tasdiqlanadi.



7-rasm. Issiqlik almashtirgichdagi seksiyalar soniga bog‘liq holda hisoblash tajribasining sakkiz varianti uchun umumiy issiqlik yo‘qotilishi

Ikki quvurli suv bilan isitish tarmog‘ini hisoblashning shunga o‘xshash usuli §3.4 da keltirilgan bo‘lib, unda atrof-muhitning alohida harorati, chiziqli qismlarning turli ko‘rsatkichlari va issiqlik almashtirgich seksiyalarining soni hisobga olingan. Ya‘ni, agar oldingi paragraflarning natijalari bir xil ko‘rsatkichli tashkil qiluvchilarga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, ushbu paragrafning natijalari turli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan tashkil etuvchilarga tegishlidir.



$K_{\text{Л}}$ – qozon; P_6 – kengaytiruvchi bachok; Q – stoyakdagi umumiy sarf; Q_1, Q_2, \dots – zvenolar bo‘yicha sarflar; $1, 2, \dots$ – yuqori magistralga zvenolarni ulanish nuqtalari; $1', 2', \dots$ – pastki magistralga zvenolarni ulanish nuqtalari; R_1, R_2, \dots – issiqlik almashtirgichlar

8-rasm. Beshta issiqlik almashtirgichli ikki quvurli isitish tarmog‘ining sxematik ko‘rinishi

Ikki quvurli issiqlik tarmog‘ining gidravlik va issiqlik hisoblari uchun formulalar matematik induksiya qoidalari asosida olingan. Ushbu paragrafdagi materiallardan dasturiy mahsulotni (DGU № 41130) ishlab chiqishda foydalanilgan. Dissertatsiya ishida ko‘p variantli hisoblash eksperimenti natijalari keltirilgan.

Ikkinchi va uchinchi boblarda olingan natijalar tarmoqqa kuchaytirgich kiritish zaruratini va uning quvvatini (shunday zarurat mavjud bo‘lsa) kerakli quvvatni, shuningdek, suv isituvchi qozonining quvvatini aniqlash imkonini beradi. Algebraik hisoblashlar doirasida taklif etilgan hisoblash usullarining soddaligi ko‘p qavatli turar-joy binolari va ko‘p tarmoqli korxonalar uchun issiqlik ta‘minotini loyihalash bosqichiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash uchun yo‘l ochadi.

XULOSA

“Bir va ikki quvurli isitish tizimlarini gidravlik va issiqlik hisobi usullarini ishlab chiqish” mavzusida dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Suv bilan isitish tizimining tashkil etuvchilari, loyihalash texnologiyasi, isitish tizimlarini modellashtirishning nazariy asoslari va oqim taqsimoti nazariyasi tahlil qilindi va uning asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Suv bilan isitish tizimlariga nisbatan massa, impuls va ichki energiyaning saqlanishi qonunlarining kvazibir o‘lchovli tenglamalari keltirib chiqarildi va issiqlik almashtirgichlarning qovurg‘alarini va oqimning ixtiyoriy gidrodinamik rejimlarini hisobga olgan holda gidravlik va issiqlik hisoblari uchun formulalar olindi.

Issiqlik tashuvchi oqim issiqlik almashtirgichning tashqi konturi bo‘ylab sodir bo‘lish, oraliq vertikal quvurchalarda esa issiqlik tashuvchi turib qolish gipotezasiga asoslanib, bir quvurli tizimga pastki chekkadagi quvurchalar orqali ulangan ko‘p seksiyali issiqlik almashtirgichning kvazi bir o‘lchovli matematik modeli ishlab chiqildi.

Qarshilikning kvadratik qonuni va Kirxgof qonunlarining analoglaridan foydalangan holda uch konturli tarmoq shaklida taqdim etilgan ko'p seksiyali issiqlik almashtirgich yo'ylaridagi sarflari va tugunlaridagi bosimni hisoblash uchun formulalar olindi.

Uchinchi turdagi chegaraviy shartlarga muvofiq oraliq vertikal quvurchalarda issiqlik almashinuvi jarayonining barqaror holati masalasining yechimi olindi, bu suvning ma'lum boshlang'ich harorati va atrof-muhit haroratida quvurning bir birlik uzunligi orqali issiqlik solishtirma yo'qotilishini aniqlash uchun ishlatilgan.

Shuxov formulasi va qo'shiluvchi oqimlarning o'rtacha haroratini aniqlash formulasi asosida bir xil tipdagi seksiyalarli issiqlik almashtirgichning issiqlik hisobi uchun algoritm ishlab chiqildi.

Magistral issiqlik o'tkazuvchi qismlaridan, soni cheklangan bir turdagi seksiyali issiqlik almashtirgichlar va atrof-muhit haroratining berilgan qiymatlaridan tashkil topgan bir quvurli suv bilan isitish tizimining issiqlik tashuvchining berilgan kirish harorati va sarfida, kirish bosimida tarmoqdagi bosim va harorat o'zgarishini aniqlab beradigan algoritm ishlab chiqilgan.

Ikki quvurli suv bilan isitish tarmog'i va unga ulangan ko'p seksiyali issiqlik almashinuvchilarining kvazi bir o'lchovli matematik modellari ishlab chiqildiki, bunda darsi-Veysbax formulasida issiqlik tashuvchi oqimining beshta gidrodinamik rejimi uchun qarshilik koeffitsientining bir hadli ko'rinishi amalga oshirilgan.

Yuqori va pastki yo'ylarning elementlari bo'yicha, shuningdek vertikal quvurchalar hamda ko'p qismli issiqlik almashtirgich va ikki qatorli tarmoqdagi ishchi suyuqlikning tugunlardagi bosimlar va haroratlar bo'yicha sarf qiymatlarini hisoblash uchun analitik formulalar olindi.

Hisoblash tajribalari asosida ko'p omilli tadqiqot ob'ektlari uchun bazaviy ma'lumotlarni tanlash ishning yutug'i hisoblanadi.

Bir va ikki quvurli isitish tarmoqlari va ularning faol elementlarini hisoblash uchun taklif qilingan formulalari va algoritmlar bo'yicha dasturiy mahsulotlar (DGU №№ 41131, 40515, 36969 va 41130) ishlab chiqildi va issiqlik tashuvchining bosimi va issiqlik yo'qotilishini aniqlash uchun namunaviy hisoblash tajribalari o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari fundamental grantni bajarish, suv bilan isitish avtonom tarmoqlarini loyihalash va rekonstruktsiya qilish bosqichlarida foydalanilgan, natijada hisoblash aniqligi 10-15 % ga ortgan, hisoblashga ketadigan vaqt 12-20 %ga qisqartirilgan. Issiqlik tashuvchining optimizatsiyasi va tekis taqsimlanishi natijasida issiqlik energiyasi – 2 %ga tejashga erishilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ ИМ. М.Т.
УРАЗБАЕВА АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ИНСТИТУТ МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ
ИМ. М.Т. УРАЗБАЕВА АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

ШИРИНОВ ЗИЁМАТ ЗОЙИРОВИЧ

**РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ГИДРАВЛИЧЕСКОГО И ТЕПЛОВОГО
РАСЧЕТА ОДНО- И ДВУХТРУБНЫХ СЕТЕЙ ОТОПЛЕНИЯ**

01.02.05 – Механика жидкости и газа

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/T2587.

Диссертация выполнена в Институте механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева Академии Наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (instmech.academy.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Хужаев Исматулла Кушаевич доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Худайкулов Совет Ишанкулович доктор технических наук, профессор Закиров Аскар Халилович кандидат физико-математических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Защита диссертации состоится «11» июня 2025 г. в 14 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.T/FM.61.01 при Институте механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева Академии Наук Республики Узбекистан. (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, 40, зал заседаний-428. Тел. (99855) 520-02-45; (99855) 520-04-46, e-mail: instmech@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева Академии Наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 30). (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурман йули, 40. Тел.(99855) 520-02-45).

Автореферат диссертации разослан «30» май 2025 года.
(реестр Протокола рассылки № 8 от «30» май 2025 года.)



М.М.Мирсаидов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор, академик АН РУз

Ф.Ф.Адилов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, с.н.с.

З.М.Маликов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире последние годы большое внимание уделяется обеспечению комфортных условий для проживания и работы. Рост промышленного и жилищного строительства приводит к увеличению объемов потребления воды, газа и тепловой энергии. Удовлетворение этих потребностей за счет строительства новых инженерных сетей, а также за счет модернизации и автоматизации существующих систем способствуют уменьшению капитальных вложений. Особое внимание требует расширение объемов использования ветровой, солнечной энергии, энергии земли и тепла подземных вод. В развитых странах намечено уменьшение эксплуатационных расходов за счет увеличения эффективности систем отопления, перехода к замкнутым контурам систем и к отдельным блокам управления, сокращения энерго- и материалозатрат, перехода к автоматизированному управлению полного цикла процесса отопления. Большое внимание обращено успешному решению этих проблем, в частности, путем разработки и внедрения точных гидравлических и тепловых способов расчета отопительных систем.

